

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 223 (1284), 2024-yil 2-noyabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## NAVOIY VILOYATI NAFAQAT IJTIMOY-IQTISODIY SOHADA, BALKI MA'NAVYIY-MA'RIFIY YUKSALISH YO'LIDA HAM BARCHAGA O'RNAK BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-oktyabr – 1-noyabr kunlari yirik sanoat obyektlari va ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy soha tashkilotlari bilan tanishish, yangi loyihalarga start berish maqsadida Navoiy viloyatida bo'ldi.



Davlatimiz rahbarining Navoiy viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni xayrli voqea bilan boshlandi. Jamoatchilik vakillari ishtirokida yangi loyihalarga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.

Keyingi yillarda Navoiy viloyatida tadbirkorlik jadal rivojlanib, investorlarning hududga qiziqishi tobora ortmoqda. Birgina 2023-yilning o'zida

101 trillion so'mlikdan ziyod sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 648 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Shuningdek, qariyb 478 million dollarlik xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, viloyat tashqi savdo aylanmasi qariyb 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Viloyatda 300 dan ortiq chet el korxonalari ishlab turibdi. Endi ularning soni yanada ko'payadi.

Marosimda 15 ta loyiha haqida e'lon qilindi.

Jumladan, Konimex tumanida yonuvchi slanelarni qazib olish va qayta ishlashning birinchi bosqichi, Karmana tumanida 300 megavatt quyosh foto elektr stansiyasi va 75 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimi, Navoiy shahrida texnik gaz ishlab chiqarish, G'ozg'on shahrida marmar va Zarafshon

shahrida granit toshlarni qayta ishlash, Uchquduq tumanida kaolin qazib olish va boyitish, Xatirchi tumanida baliq ozuqasi tayyorlash loyihalari qurilishi boshlandi.

Karmana tumanida kaliy sulfat va sulfat kislotasi, Navoiy shahrida paxta sellulozasi, Nurota tumanida granit toshlarni qayta ishlash korxonalari ishga tushirildi. Mazkur 15 ta loyihaning umumiy qiymati

3 milliard 600 million dollar. Ularning natijasida 7 mingdan ortiq ish o'rni paydo bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, yangi loyihalarning qurilishi va faoliyatini boshlab berdi.

Shundan so'ng Navbahor tumanida Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi daromadlarini ko'paytirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash masalalari

muhokamasi bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining boshida yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari kengashlariga saylovlar demokratik tamoyillar asosida qizg'in o'tganini ta'kidlab, unda mas'uliyat bilan qatnashgan fuqarolarga minnatdorlik bildirdi.

Davomi 2-betda

## KO'P QIRRALI MUNOSABATLARNI YANADA KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI KO'RIB CHIQLDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-noyabr kuni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari Dmitriy Chernishenko boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Rossiya delegatsiyasi tarkibida uchrashuvda vazirlar Aleksey Chekunkov va Sergey Kravsov ham qatnashdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarga muvofiq O'zbekiston — Rossiya ko'p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Dmitriy Chernishenko davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va Hukumat Raisi Mixail Mishustinning salomini yetkazdi.

Suhbat davomida ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim va gumanitar almashinuvni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari faoliyati va O'zbekistonda ularning yangi filiallarini ochish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimiz hududlarining Rossiyaning Uzoq Sharqdagi hududlari bilan amaliy hamkorligini yo'lga qo'yish

bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi"ni qabul qilish muhimligi ta'kidlandi.

Tomonlar o'zaro sayyohlar oqimini ko'paytirish, qo'shma madaniy va sport tadbirlarini o'tkazishdan manfaatdor ekanligi qayd etildi.

O'ZA

### Shukuh



Oltin o'z-o'zidan qazib olinib, qayta ishlanib, qimmatbaho mahsulotga aylanmaydi. Uning ortida yuzlab, minglab kishilar mehnati yotadi. O'zining 75 yillik yubiley sanasini nishonlayotgan "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati ana shunday mashaqqatli, shu bilan birga, shonli yo'lni bosib o'tdi. O'zbekiston rangli metallurgiyasi bayroqdori bo'lgan kombinatning o'zi ham yillar davomida nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyoda oltin kabi qimmatbaho, zanglamas va zarur korxonaga aylandi.

## ULKAN MUVAFFAQIYAT VA MEGALOYIHALAR MAJMUASI

OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI FAOLIYATI SHUNDAY E'TIROFGA LOYIQ



Uning har bir ishchi-xodimi oldiga qo'yilgan vazifalarni sharaf bilan ado etib kelmoqda. O'z kasbining fidoyilari — konchilar yer qa'ridan qazib olayotgan tabiiy boyliklar mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishi, aholi farovonligini ta'minlashga hissa bo'lib qo'shilyapti. Bugun kombinatning har bir

a'zosi ko'ksida o'zgacha g'urur tuyumda, Olmaliq shahri aholisi esa ana shu bayramona kayfiyatga sherik.

"Metallurg" madaniyat saroyi har galgidan o'zgacha bezatildi. Turli soha vakillari, nuroniylar, xorijlik mehmonlar alohida hurmat bilan kutib olindi. Shu yerda

bo'lib o'tgan tantanalı tadbirida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etib, Prezidentimizning kombinat mehnat jamoasiga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

Davomi 2-betda

## Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

### IJRO INTIZOMI — DAVLAT AKTIVLARINI SAMARALI BOSHQARISHNING MUHIM OMILI

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda keng ko'lamli islohotlar, taraqqiyotning yangi, bugungi zamon talablariga hamohang shiddatli bosqichiga o'tishga qaratilgan ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yurtimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish hamda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Shubhasiz, bugun amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirishda ijro intizomi asosiy omillardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ijro intizomi natijadorlikni ta'minlovchi muhim ko'rsatkich

Islohotlardan ko'zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, butun tizim yoki yo'nalishlarni zamon talablariga mos ravishda isloh qilishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari

rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralari yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida ham qat'iy intizom o'rnatishga huquqiy zamin yaratdi.

Davomi 3-betda



NAVOIYNING ERTANGI KUNI YANGI SHAHARCHADA NAMOYON 3









